XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING QARORI

190400, Boysun tuman, Hayot abadiy ko'chasi 1-uy, tel (376)33 53259

2022 - yil 24 - fevral VI-44-20-8-110-K/22 Boysun tuman hokimligi

Tumandagi umumta'lim maktablarida ta'lim sifati hamda moddiy texnika bazasini oshirish borasidagi dolzarb vazifalar ijrosi bo'yicha tuman hokimi A.Ch.Jo'rayevning hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "Xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirishda vazirlik va mahalliy hokimliklarning mas'uliyatini oshirish bo'yicha 2022-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar to'g'risida" o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida qayd etilgan topshiriqlarni amalga oshirish bo'yicha tuman hokimi A.Ch.Jo'rayevning tumanda umumta'lim maktablarida ta'lim sifati hamda moddiy-texnika bazasini oshirish borasidagi dolzarb vazifalar to'g'risidagi hisobotini tinglab, xalq deputatlari Boysun tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tumandagi umumta'lim maktablarining ta'lim sifati hamda moddiy-texnika bazasini oshirish borasidagi dolzarb vazifalar ijrosi bo'yicha tuman hokimi A.Ch.Jo'rayevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Xalq ta'limi bo'limi (B.Soxibov):

bir oy muddatda umumta'lim maktablarida ta'lim sifati bilan bog'liq holatni o'rganib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlasin;

ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi viloyat hududiy bo'limi bilan hamkorlikda tumandagi umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning salohiyatini oshirish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar rejasi tasdiqlasin.

Bunda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilsin:

tumandagi mavjud o'rta maxsus ma'lumotli pedagog xodimlarni oliy

ta’limning maxsus sirtqi bo‘limlariga yo‘naltirish choralarini ko‘rish;

umumta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy bilimlarini oshirish maqsadida toifasi yo‘q (mutaxassis) pedagoglarni bosqichma-bosqich birinchi va oliy toifaga ega bo‘lishlarini ta’minlash.

3. Xalq deputatlari Boysun tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Bahovuddinov) va tuman kengashi deputatlari bilan birgalikda tumandagi barcha turdagi ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni, sifati va mazmuni bo‘yicha rejali o‘rganish va monitoring tashkil etib, mavjud holat bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga **har oyda** yozma ma’lumot taqdim etib borsin.

4. Tuman Xalq ta’limi bo’limi (B.Soxibov)va tuman moliya bo’limi boshlig’i (T.Jummayev) **har oyda** bosqichma-bosqich:

tumandagi umumta’lim maktablarini qurilish-ta’mirlash hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlari uchun tuman mahalliy budjetining orttirib bajarilgan qismidan mablag‘larni ajratib borish;

tumandagi barcha maktablar faoliyatini nazorat qilish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

ta’lim muassasasining o‘quv-laboratoriya sinflari, kutubxona, informatika, kasbga yo‘naltirish o‘quv xonalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash;

umumta’lim maktablaridagi informatika xonalari va ulardagi kompyuter texnikalarini xatlovdan o‘tkazish, mavjud ehtiyojdan kelib chiqib, zamonaviy elektron qurilmalar bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Tuman Xalq ta’limi bo’limi (B.Soxibov), tuman Madaniyat bo’limi (H.Bozorov), tuman jismoniy tarbiya va sport bo’limi (T.Murtazoyev), tuman Sog‘liqni saqlash bo’limi (T.Botirov) barcha umumta’lim maktablarida o‘quvchilar uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish choralarini ko‘rsin.

Bunda birinchi navbatda barcha ta’lim muassasalarini jihozlash hamda moddiy-texnika bazasini yaxshilashga alohida e’tibor qaratsin.

Yoshlarni Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan **5 ta muhim tashabbus** asosida tashkil etilgan madaniyat, sport, kompyuter texnologiyalari va kitobxonlik hamda tikuvchilik yo‘nalishidagi to‘garaklar va tadbirlarga yoshlarni keng jalb etish ishlarini amalga oshirsin.

6. Boysun tumani hokimligi matbuot xizmati rahbari (Y.Xoliyorov) va “Boysun” gezetasi (X.Qarayev) ommaviy axborot vositalarida tumanda yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi tadbirlar hamda yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. korxona, muassasa va idoralar rahbarlari yuqorida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan belgilangan muddatlarda xalq deputatlari Boysun tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borsin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Bahovuddinov) zimmasiga yuklansin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.Ch.Jo'rayev**